

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yilda o'z faoliyatiga oid hisoboti

1. Hisobot yilida davlat organi yoki tashkiloti o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish va olib borishda asosiy e'tibor qaratilgan soha hamda yo'nalishlar.

2024-yilda O'zbekistonning oliy va kasbiy ta'lim, fan hamda innovatsiyalar sohalarida quyidagi asosiy yo'nalishlarda muhim islohotlar amalga oshirildi:

Oliy ta'lim:

- Ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish, yangi raqamli texnologiyalar va interaktiv o'quv platformalarini joriy etish.
- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va innovatsion ilmiy tadqiqotlar uchun yangi grantlar, stipendiyalar tizimini ishlab chiqish.
- Universitetlar, ilmiy markazlar va sanoat o'rtasidagi integratsiyani rivojlantirish hamda ilmiy loyihalarni tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Kasbiy ta'lim:

- Sanoat talablariga mos keladigan kasbiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.
- Zamonaviy texnologiyalar, robototexnika, avtomatlashtirish va boshqa innovatsiyalar asosida o'quv kontentini yangilash.
- Sanoat bilan o'quv muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, amaliyot va stajirovka dasturlarini yo'lga qo'yish.

Fan va innovatsiyalar:

- Ilmiy tadqiqotlar uchun moliyaviy resurslarni oshirish, yangi grantlar va investitsion dasturlarni joriy etish.
- Ilmiy-tadqiqot institutlarini modernizatsiya qilish va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan infratuzilmani mustahkamlash.
- Innovatsion startaplar, texnologik parklar va inkubatorlarni tashkil etish hamda ilmiy yutuqlarni tijoratlashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlash.

Ushbu islohotlar respublika hamda xalqaro miqyosda ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohalarida yangi salohiyatni ochib berish, yoshlar va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish va iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy hissa qo'shishga qaratilgan.

2. Davlat organi yoki tashkiloti tashabbusi bilan o'z faoliyati hamda muayyan sohani takomillashtirish (tartibga solish) yuzasidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar, joriy etilgan yangi mexanizmlar hamda ularning ijro holati haqidagi ma'lumotlar.

2024-yilda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasini tartibga soluvchi jami **40 ta** normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ulardan :

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari – **2 ta**;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari – **3 ta**;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari – **8 ta**;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarolari – **20 ta**;


Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar – **7 tani** tashkil etadi.

Sohalar kesimida:

Pedagog maqomiga oid – **1 ta**;

Oliy ta'lim tizimiga oid – **14 ta**;

Kasbiy ta'lim tizimiga oid – **6 ta**;
 O'rta maxsus ta'lim tizimiga oid – **2 ta**;
 Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga oid – **2 ta**;
 Innovatsion faoliyatga oid – **2 ta**;
 Boshqaruv faoliyatiga oid – **4 ta**;
 Boshqalar – **9 ta**.




Ushbu hujjatlarda belgilan vazifalar ijrosi natijasi o'laroq, tizimga **30 dan ortiq** yangi mexanizmlar joriy etildi. Xususan, talabalar uchun haq to'lanadigan amaliyot o'tash tartibi belgilandi, tibbiyot OTMLarining bitiruvchi kurs talabalarida oilaviy shifokor uchun talab etiladigan klinik ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida ko'p tarmoqli tibbiyot tashkilotlarida ish haqi to'lanadigan internatura tashkil etildi, kasbiy ta'lim muassasalari ishlab chiqarish ta'limi ustalarining namunaviy yillik ish rejasi hamda ularning asosiy faoliyat turlariga sarflanadigan vaqt me'yorlari belgilandi, pedagog kadrlarga faoliyat samaradorligidan kelib chiqib, har oy oylik maoshining **100 foizigacha** miqdorda ustama to'lanadigan bo'ldi, kvotalarni davlat OTMLari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilinib, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida tasdiqlash tartibi joriy etildi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Hukumat qarorlari hamda yuqori turuvchi organ topshiriqlarining ijro holati.

2024-yil yanvar–dekabr oylarida vazirlik tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni 3382 ta bo'lib, ularning 3382 tasi (100%) to'liq bajarildi. Asosiy ijrochi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni 2084 ta tashkil etib, ularning hammasi (100%) bajarilgan.

2025-yil yanvar oyida vazirlik tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni 346 ta bo'lib, ularning 346 tasi (100%) bajarildi. Shu oyda asosiy ijrochi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni 215 ta (346 ning 62,1% ini tashkil etadi) va ularning 215 tasi (100%) bajarilgan.

2025-yil fevral oyida vazirlik tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni 165 ta bo'lib, ularning 119 tasi (72,1%) bajarildi. Fevral oyida asosiy ijrochi tomonidan bajarilishi lozim



bo'lgan topshiriqlar soni 105 ta (165 ning 63,6% ini tashkil etadi) bo'lib, ularning 83 tasi (79,0%) bajarilgan, qolgan 22 tasi (20,9%) bajarilmoqda.

4. Davlat organi yoki tashkilotining o'z faoliyat yo'nalishidan kelib chiqadigan sohalar (yo'nalish) bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda kelgusi istiqbolda bajarilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar.

Oliy ta'lim yo'nalishida:

8 ta oliygoh 3 taga yiriklashtirilib, 860 shtat birligi maqbullashtirildi hamda 45,6 mlrd so'm mablag' iqtisod qilindi;


mazmunan yaqin bakalvriat yo'nalishlari 40 foizga (306 tadan 183 taga) maqbullashtirildi, TOP-300 oliygohlar dasturlari asosida 1 200 tadan ortiq ta'lim dasturlari takomillashtirildi;

39 ta ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi, TOP-500 ga kirgan xorijiy oliygohlar bilan 15 ta qo'shma ta'lim dasturi tashkil etildi;

professor-o'qituvchilarning 4 970 nafari xorijda malaka oshirdi, 2 510 nafar xorijiy professor-o'qituvchilar o'quv jarayoniga jalb etildi;

"Avval test, so'ng tanlov" tamoyili asosida bakalvriatga 196 987 nafar talaba qabul qilindi. 29 313 ta davlat granti o'rinlari bilim va iqtidorga berilishi natijasida, yetakchi oliygohlardagi grantlar soni oshdi;

o'quv jarayonini tashkil etish, kontrakt, stipendiya to'lash, yotoqxona olish to'liq raqamlashdi, naqd pul aylanmasiga chek qo'yildi. **1 012 ta** shtat qisqartirilib, bir yilda **25,4 mlrd so'm** iqtisod qilindi.



Kasbiy ta'lim yo'nalishida:

texnikumlar soni **600 taga** yetkazilib, **301 ta** kasb bo'yicha **353 047 nafar** o'quvchini o'qitish yo'lga qo'yildi;

30 843 nafar o'quvchi **7 677 ta** korxonada dual ta'lim shaklida kasbga o'qitish yo'lga qo'yildi hamda ta'lim jarayoniga korxonalaridagi **7 789 nafar** ustozlar jalb etildi;

158 nomdagi yangi o'quv qo'llanmalar nashr etilib, Germaniya, Buyuk Britaniya va Saudiya Arabistoni bilan hamkorlikda **17 ta** kasb bo'yicha ta'lim dasturlari joriy etildi;

kasbiy ta'lim klassifikatori takomillashtirilib, **671 tadan 450 taga** maqbullashtirildi hamda **12 ta** BTEC kvalifikatsiyalari joriy etildi;


200 nafar pedagog xorijda malaka oshirdi va **750 nafari** Germaniya metodikasi asosida tadbirkorlik ko'nikmalari bo'yicha o'qitildi.

Ilm-fan va innovatsion faoliyat yo'nalishida:

doktoranturaga qabul **5 200 taga** yetkazilib, ilmiy daraja olganlar **3 954 nafarni** tashkil etdi hamda ilmiy salohiyat **45 foizga** yetkazildi;

161 mlrd so'mlik 291 ta yangi loyihalar moliyalashtirildi, hududlarda **4 ta** innovatsion infratuzilma tashkil etildi va ularning soni **55 taga** yetkazildi;

69 ta innovatsion korxonalar tashkil etildi va **340 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi, tijoratlashtirish va startap loyihalari doirasida sotilgan innovatsion mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar **82,9 mlrd** so'mni tashkil etdi.



Ma'naviy-ma'rifiy, harbiy vatanparvarlik yo'nalishida:

"Adabiy-ma'rifiy haftaliklar" loyihasi doirasida **94 ta** oliygohda **768 ta** tadbirlar o'tkazilib, **465 ming nafar**, "Ma'rifat ulashib", "Talabalar ligasi", "Besh tashabbus", "Talaba-yugur" tadbirlariga **637 ming nafar** talaba jalb etildi;

330 ming nafar talabaning teatr va muzeylarga tashrifi uyushtirildi, **47 ta** yirik ko'rik-tanlov va festival tashkil etildi;

oliygozlarda **178 nafar** profilaktika inspektorlari faoliyati yo'lga qo'yildi va **180 ta** oliygohda "Qalqon" jamoatchilik tuzilmalari tashkil etildi;

talabalar o'rtasida jinoyatchilik **28,1 foiz** (298 taga)ga kamaydi.

Oliy va kasbiy ta'lim tizimida yangi tashabbuslarni amaliyotga joriy etish maqsadida sohada 2025-yilda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim yo'nalishida:

15 ta oliygoh **7 taga** yiriklashtirilib, Buxoro, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Sirdaryo va Samarqand viloyatlari va Nukus shahridagi oliygozlari qayta tashkil etiladi, **1 110 shtat** maqbullashtiriladi hamda **50 mlrd so'm** mablag' iqtisod qilinadi;

35,6 ming nafar bitiruvchi diplom himoyalari korxonalarda o'tkaziladi;

TOP-300 oliygozlari dasturlari asosida yuqori kursning **2 015 ta** ta'lim dasturi takomillashtiriladi va amaliy mashg'ulotlar **60 foizga** yetkaziladi;

45 ta ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi, TOP-500 ga kirgan xorijiy oliygoh bilan hamkorlikda 12 ta qo'shma dastur tashkil etiladi;

oliygozlarning **5 350 nafar** professor-o'qituvchisi xorijda malaka oshiradi, **3 040 nafar** xorijiy mutaxassis o'quv jarayoniga jalb qilinadi;

o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan talabalarga davlat granti qayta taqsimlanadi. Kambag'al oiladan bo'lgan **3,5 ming** nafar yoshlarga qo'shimcha grant kvotasi ajratiladi,

qo'shimcha **4 000 nafar** talabaga moliyaviy mustaqil oliygohlar tomonidan **1 mlrd so'mgacha** mablag' ajratiladi;

xarajatlar smetalarini shakllantirish jarayoni to'liq raqamlashtiriladi;

8 ta oliygohda "Ilg'or muhandislik maktabi" faoliyati yo'lga qo'yiladi;

hamkor korxonalar tomonidan **5 mlrd so'mdan**, kelgusi yildan **2 mlrd so'mdan** mablag' ajratib boriladi.

Kasbiy ta'lim yo'nalishida:

kasbga o'qitilayotgan o'quvchilar **420 ming nafarga** yetkaziladi, **23 ming nafar** ishsizlar kasbga o'qitiladi, malaka toifasiga ega pedagoglar ulushi 35 foizga yetkaziladi;

50 ming nafar o'quvchilar **12 500 ta** korxonada dual ta'lim shaklida kasbga o'qitiladi. Ta'lim jarayoniga esa **12 100 nafar** ustoz jalb etiladi;

83 ta mutaxassislik bo'yicha Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Belarus va Saudiya Arabistoni bilan hamkorlikda ta'lim dasturlari joriy etiladi;

Koreyaning Eksim banki bilan **330 ta** texnikumda raqamli texnologiyalarga doir, umumiy qiymati **51,1 mln AQSH dollari** bo'lgan loyiha boshlanadi;

2 000 nafar o'quvchilarni ingliz, koreys, nemis va yapon tillariga o'qitish bo'yicha qo'shimcha xorijiy til kurslari tashkil etiladi.

Ilm-fan va innovatsion faoliyat yo'nalishida:

muhandislik yo'nalishida doktoranturaga qabul **32 foizga** va ilmiy salohiyat **55 foizga** yetkaziladi hamda **329 mlrd so'mlik** ilmiy loyihalar moliyalashtiriladi;

450 ta yangi ish o'rni yaratiladi, **100 mlrd so'mlik** innovatsion mahsulotlar sotiladi va xizmatlar ko'rsatiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy, harbiy vatanparvarlik yo'nalishida:

"Xavfsiz dargoh va xavfsiz talaba" platformasi ishlab chiqiladi, qizlar o'rtasida – "To'maris izdoshlari", yigitlar o'rtasida – "Amir Temur vorislari" harbiy-sport musobaqalari o'tkaziladi;

hududlarda bittadan oliygohda musobaqalar uchun to'siqlar yo'lagi, o'q otish va boshqa shu kabi "Harbiy sport maydonchalari" tashkil etiladi;

talabalarning "Ijtimoiy faollik indeksi" joriy etiladi va ma'naviy xatti-harakatlari baholanadi.

5. O'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirishda bajarilgan ishlar, aniqlangan holatlar va ularni oldini olish borasida ko'rilgan choralar.

Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.

Hisobot davrida jami **211 ta** obyektida ichki audit tadbirlari o'tkazilgan. Yillik rejasi kiritilgan **44 ta** obyektning **43 tasi (98 foizi)**da ichki audit tadbirlari o'tkazilgan (**9 ta obyekt** Prezidentning 20.06.2024-yildagi 32-sonli bayoniga asosan moratoriy e'lon qilinganligi, **1 ta**

2024-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ichki audit xizmati yillik rejasining bajarilishi to'g'risida ma'lumot

T/r		Hisobot davrida o'tkazilgan jami ichki audit tadbirlari	Ichki audit yillik rejasida						Rejadan tashqari							
			Hisobot davrida ichki audit yillik rejasiga kiritilgan ichki audit tadbirlari		Ichki audit yillik rejasida hisobot davrida o'tkazilgan ichki audit tadbirlari		Yillik rejaning hisobot davrida bajarilishi	Hisobot davrida jami o'tkazilgan rejadan tashqari ichki audit tadbirlari		shundan						
										fuqarolar ishtirokidagi audit tizimi orqali aniqlangan		budget to'g'risidagi qonunchilik buzilishi faktlari to'g'risida ma'lumotlar asosida		boshqa holatlarda		
		tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni	foizda	tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
1	Ichki audit tadbirlari	211	211	44	44	43*	43	98%	168	168	0	0	15	15	153**	153
	Jami	211	211	44	44	43	43	98%	168	168	0	0	15	15	153	153

obyekt faoliyati prokuratura organi tomonidan tekshiruvdan o'tkazilganligi sababli nazorat tadbirlari o'tkazilmagan).

Rejadan tashqari **168 ta** obyektida audit tadbirlari o'tkazilgan. Shundan, **15 ta** obyektida byudjet qonunchiligi buzilishi, **153 ta** obyektida boshqa moliyaviy buzilish holatlar aniqlangan.

2024-yil davomida ichki audit xizmatlari tomonidan jami **270 ta** obyektida nazorat tadbirlari o'tkazilib, jami **97 115,1 mln so'm** xato va kamchiliklar aniqlangan. **254 ta** obyektida aniqlangan **20 963,7 mln so'm** miqdoridagi xarajatlar tegishli budjetlarga tiklangan, **25 ta** obyektida **520 ta** holatda aniqlangan **13 530,3 mln so'm** xarajatga huquqiy baho berish uchun hujjatlar vakolatli organlarga kiritilgan.

O'tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan **45 nafar** xodimlarga nisbatan intizomiy choralar ko'rilgan, shulardan **28 tasiga** hayfsan berilgan, **1 nafariga** jarima qo'llanilgan va **16 nafari** lavozimidan ozod etilgan.

2024-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ichki audit xizmati faoliyatining umumiy natijalari

(mln.so'mda)

T/r		O'tkazilgan ichki audit tadbirlarida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar				Tegishli budjetga tiklangan mablag'lar				Huquqiy baho berish uchun vakolatli organlarga yuborilgan holatlar				Ichki audit tadbirlari natijalariga ko'ra intizomiy jazo qo'llanilgan xodimlar soni	shundan		
		tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi	tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi	tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi		Hayfsan	Jarima	Lavozimdan ozod etish
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1	Ish rejali ichki audit tadbirlari	43	43	513	16,590.5	42	42	327	1,535.2	3	3	37	630.5	8	7		1
2	Rejadan tashqari ichki audit tadbirlari	168	168	3,168	65,459.6	167	167	320	14,901.5	7	7	305	11,752.1	7	6		1
3	OTMlari bosh auditorlari	59	59	772	15,065.0	45	45	289	4,527.0	15	15	178	1,147.8	30	15	1	14
	Jami	270	270	4,453	97,115.1	254	254	936	20,963.7	25	25	520	13,530.4	45	28	1	16

2024-yil davomida ichki audit xizmatlari tomonidan o'tkazilgan **231 ta** profilaktika tadbirlari natijasida **76 151,3 mln so'm** samarasiz xarajatlarning oldi olingan. Shundan, **28 ta** obyektlarda **528 ta** holatda **3 797,4 mln so'm** noqonuniy xarajatlarning oldi olingan, **111 ta** obyektlarda **246 ta** holatda **35 754,6 mln so'm** mablag'lar maqbullashtirilgan, **92 ta** obyektlarda **1246 ta** holatda **36 599,3 mln so'mlik** uslubiy xatoliklar aniqlangan.

2024-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ichki audit xizmati tomonidan profilaktika tadbirlari natijasida oldi olingan (bartaraf etilgan) samarasiz xarajatlar to'g'risida ma'lumot

mln.so'm

T/r		Profilaktika tadbirlari natijasida oldi olingan (bartaraf etilgan) samarasiz xarajatlar				Shundan:											
						Noqonuniy xarajatlarning oldi olingan				Maqbullashtirilgan mablag'lar				Uslubiy xatoliklar			
		Tadbirlar soni	Obyektlar soni	Holatlar soni	Summasi	Tadbirlar soni	Obyektlar soni	Holatlar soni	Summasi	Tadbirlar soni	Obyektlar soni	Holatlar soni	Summasi	Tadbirlar soni	Obyektlar soni	Holatlar soni	Summasi
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1	Ish rejali ichki audit tadbirlari	28	28	358	15,055.3	4	4	28	288.2	9	9	105	1,814.5	15	15	225	12,952.6
2	Rejadan tashqari ichki audit tadbirlari	136	136	803	50,558.1	5	5	178	916.1	89	89	126	31,419.1	42	42	499	18,222.9
3	OTMlari bosh auditorlari	67	67	859	10,538.0	19	19	322	2,593.1	13	13	15	2,521.0	35	35	522	5,423.9
	Jami	231	231	2,020	76,151.3	28	28	528	3,797.4	111	111	246	35,754.6	92	92	1,246	36,599.3

Ichki audit boshqarmasi tomonidan **270 ta** obyektida masofaviy audit o'tkazilib, natijada aniqlangan shubhali holatlar bo'yicha jami **97 115,1 mln so'm** tasdig'ini topgan, 231 ta obyektidagi 76 151,3 mln so'm moliyaviy xato va kamchiliklarning oldi olingan. 254 ta obyektidagi 20963,7 mln so'm tegishli budjetlarga tiklangan, 25 ta obyektlarda aniqlangan holatlarga huquqiy baho berish uchun tegishli hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Vazirlik Ichki audit boshqarmasining 2024-yil ish rejasiga kiritilgan 44 ta obyektning 43 tasi (98 foizi)da ichki audit tadbirlari o'tkazilgan (9 ta obyekt Prezidentning 20.06.2024-yildagi 32-sonli bayoniga asosan moratoriy e'lon qilinganligi, 1 ta obyekt faoliyati prokuratura organi tomonidan tekshiruvdan o'tkazilganligi sababli nazorat tadbirlari o'tkazilmagan).

Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

Ichki audit boshqarmasi tomonidan oliy va professional ta'lim muassasalarining moliya-iqtisod, audit, korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens bo'limlari xodimlari, davlat xaridlariga mas'ul xodimlar uchun amaliy-uslubiy seminar o'tkazildi.

Tizimda faoliyat yuritayotgan iqtisodchi va buxgalterlarni malaka sertifikatlari olish uchun tayyorlash orqali zaxira kadrlar tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Vazirlikning tegishli buyrug'i bilan budget va budgetdan tashqari mablag'larni maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan masofaviy tarzda monitoring va nazoratni olib borish maqsadida **"Situatsion markaz"** tashkil etildi.

Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan hamkorlikda oliygohlarning **Ichki audit xizmati xodimlarining bilim va malaka salohiyatini tahlil qilish, baho berish va mustahkamlash bo'yicha 14-15-avgust** kunlari o'quv-seminar tashkil etildi.

Seminarda oliy ta'lim muassasalarida ishlayotgan har bir ichki audit xizmati xodimlarini o'qitish bilan birga, ularning **faoliyat samaradorligi hisobotlari asosida bir nechta ko'rsatkichlar bilan tahlil qilindi.**

Vazirlik tomonidan o'tkazilgan qayta nazorat tartibidagi profilaktika tadbirlarida aniqlangan holatlar tahlili orqali **oliygohlarning ichki audit xizmatlarining ish faoliyati samaradorligiga baho berildi.**

10 ta oliy ta'lim muassasasining **11 nafar** ichki audit xizmati xodimlarini ushbu lavozimda **kelgusida ishlash masalasini ko'rib chiqish** yuzasidan oliygohlar rektorlari va filiallar direktorlariga taqdimnomalar kiritildi.

Taqdimnoma kiritilgan 4 ta oliy ta'lim muassasasining **4 nafar** auditorlari lavozimidan ozod etildi, **1 nafariga** "Xayfsan" intizomiy jazo berildi, **6 nafari** qat'iy ogohlantirildi.

Vazirlik tizimidagi budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudget muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarning monitoringi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar.

2024-yilda vazirlik tizimidagi budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudget muassasa "Inno" innovatsion o'quv ishlab chiqarish texnopark MChJda Toshkent shahar prokuraturasining 21.07.2024-yildagi taqdimnomasiga asosan xizmat tekshiruvi o'tkazildi.

Nazorat tadbiri natijasida "Inno" innovatsion o'quv ishlab chiqarish texnopark MChJda **1,1 mln so'm** samarasiz xarajatlar aniqlandi.

Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

Faoliyat davomida aniqlangan tizimli moliyaviy xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha **3 ta** taklif, budget hisobini tashkil etish va yuritish bo'yicha **1 ta** taklif, Rivojlantirish dasturi va maqsadli indikatorlarning ijrosini baholash bo'yicha **1 ta** taklif va ichki audit faoliyati va yuritayotgan tizimlarni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritildi.

Vazirlik va idora faoliyatida budget intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budget xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar natijalari.

1. OTMlardagi har bir fakultetda "HEMIS" dasturiga talabalarning qabuli, kursdan kursga o'tishi, talabalar safidan chetlatilishi, akademik ta'tildaligi hamda boshqa OTMlarga o'qishni ko'chirilishi to'g'risida ma'lumotlar o'z vaqtida va to'liq kiritilishi uchun bir nafar xodimni mas'ul (*javobgar*) etib belgilash bo'yicha topshiriq berildi.

2. Talabalarga shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish bo'yicha **"kontrakt.edo.uz"** axborot tizimidan vazirlikning Ichki audit boshqarmasi xodimlarining to'g'ridan to'g'ri foydalanish imkoniyati yaratildi.

3. Talabalarga shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish bo'yicha **"kontrakt.edo.uz"** axborot tizimi bilan **"UzASBO 2"** dasturiy majmuasi bir-biriga integratsiya qilindi.

4. OTMlarning “HEMIS” dasturida pedagog xodimlarning yillik yuklamalari hamda ularning bajarilishi to’g’risidagi hisobotlarni “UzASBO 2” dasturiy majmausiga integratsiya qilish orqali ushbu pedagog xodimlarga ish haqini hisoblashda avtomatik ravishda nazoratini amalga oshirilishi yo’lga qo’yildi.

5. Vazirlikning **billing.edu.uz** axborot tizimida talabalarning kontrakt to’lovlari hisobi yuritish joriy qilindi hamda axborot tizimi Iqtisodiyot va moliya vazirligining **UzASBO 2** dasturiy majmausiga integratsiya qilindi.

Banklarning kontrakt to’lovlari o’tkazishda ushlanadigan xizmat haqqi (0.3 foiz) ta’lim tashkiloti tomonidan qoplanishi belgilandi, 0,3 foiz bank tomonidan ko’rsatilgan xizmat sifatida to’langan puldan ushlab qolinishi va dastur tomonidan ushbu mablag’ chegirib qolinib, avtomatik ravishda to’lov-kontrakt summasi kamaytirilishi va qolgan summa oliy ta’lim muassasasi hisobiga o’tkazilishi hisobiga qarzдорliklar bartaraf etilishi yo’lga qo’yildi.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko’rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash borasida amalga oshirilgan ishlar (umumiy murojaatlar soni, ularni soha, hudud va yo’nalishlar kesimidagi ko’rsatkichlari va boshqa holatlar).

2024-yil davomida vazirlikka jismoniy va yuridik shaxslardan **902 ta** og’zaki (**6,8%**), **1 744 ta** yozma (**13,1%**), **10 368 ta** (**80,1%**) elektron, jami **13 284 ta** murojaatlar kelib tushgan bo’lib, murojaatlar soni o’tgan yilning mos davriga nisbatan **3,1 foizga (431 taga) kamaygan**.

Kelib tushgan murojaatlarning **19,6% (2602 ta)** o’qishini ko’chirish va qayta tiklash, **17,8% (2365 ta)** qabul jarayonlari va o’qishga qabul qilish, **9,3% (1244 ta)** kontrakt to’lovi, **8,3% (1099 ta)** diplom masalasi, **5,6% (742 ta)** ta’lim muassasasi faoliyatiga oid masalalar, **4,9% (653 ta)** ta’lim muassasasi xodimlari faoliyatidan norozilik, **4,5% (595 ta)** oraliq nazorat va yakuniy davlat attestatsiyasiga oid masala, **4,0% (542 ta)** talabalar turar joyi masalasi, **3,1% (413 ta)** moliyaviy masalalar (ish haqi, stipendiya, moddiy yordam), **2,5% (330 ta)** nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyati, **1,9% (249 ta)** ish masalasi, **18,5% (2450 ta)**ni esa boshqa masalalar tashkil etadi.

Hududlar kesimiga ko’ra murojaatlarning **15 % (1992 ta)** Toshkent shahridan, **10,5 % (1394 ta)** Qashqadaryo viloyatidan, **10,4 % (1375 ta)** Toshkent viloyatidan, **8,3 % (1103 ta)** Farg’ona viloyatidan, **7,5 % (998 ta)** Surxondaryo viloyatidan, **7,5 % (996 ta)** Samarqand viloyatidan, **40,8 % (5426 ta)** boshqa hududlardan kelib tushgan.

Ko’rib chiqish natijalariga ko’ra murojaatlarning **10694 tasi (80,5 %)** qanoatlantirilgan, **1407 tasiga (10,6%)** tushuntirish berilgan, **125 tasining (0,9%)** ko’rib chiqilishi tugatilgan, **20 tasi (0,2 %)** ko’rmasdan qoldirildi, **1038 tasi (7,8%)** hududiy idoralarga va taalluqliligi bo’yicha tegishli vazirliklarga yuborilgan.


2024-yil davomida tasdiqlangan jadval asosida vazirlik rahbariyati tomonidan 18 marotaba sayyor qabullar o’tkazilib, sayyor qabullarda **244 dan ortiq** murojaatlar ko’rib chiqildi.

Hisobot davrida **4 ta** ta’lim muassasasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko’rib chiqish natijalari bo’yicha **o’rganishlar o’rtkazildi**

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida:

nostrifikatsiya va apostil masalasi **50,7 %**ga, ilmiy-innovatsion va startap loyihalar **44,3 %**ga, talabalar o’qishini ko’chirish **26,8 %**ga, diplom va mutaxassislik **26,8 %**ga, qabul jarayonlari va o’qishga qabul qilish masalasi **23,9 %**ga, mehnat munosabatlari va bandlik masalasi **13,8 %**ga kamayishiga erishildi.

Murojaatlarni qanoatlantirish darajasi **20,1 barobarga oshirildi**.



7. Hisobot yilida davlat budjeti va mahalliy budjet, budjetdan tashqari jamg'armalar, barcha xomiylik va xalqaro (xorijiy) mablag'lar hisobidan amalga oshirgan daromad va xarajatlari, shu jumladan xodimlarga to'langan ish haqi, mukofot va rag'batlantirish, xarid qilingan tovar (ish va xizmatlar), xizmat safari hamda budjet jarayonining ochiqqligini ta'minlashga oid boshqa ma'lumotlar.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, shu jumladan korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etgan yoki bunga imkon yaratib bergan xodimlarga nisbatan ko'rilgan choralar.

Oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi monitoring va baholash

Oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini monitoring qilish va baholash maqsadida reyting baholash tizimi joriy etilgan. Xususan, HEMIS platformasi (<https://survey.hemis.uz>) orqali anonim so'rovnoma o'tkazilib, uning natijalari asosida davlat oliy ta'lim muassasalarining korrupsiyaviy holatlari kuzatilmaganligi bo'yicha milliy reyting shakllantirilgan. Reyting tizimi doirasida muassasalar "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" darajalarga bo'lingan.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish:

Yaqin qarindoshlar faoliyati

Vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalari, markazlar va agentliklarda yaqin qarindoshlar bevosita bo'ysunuv yoki nazorat yo'nalishidagi tashkilotlarda ishlayotganligi haqida ma'lumotlar o'rganilgan. Natijada, vazirlikda bunday holat mavjud emasligi aniqlangan.

O'rindoshlik asosida ishlash

Davlat organlari va ularning bo'ysunuvida bo'lgan tashkilotlarda xodimlarning o'rindoshlik asosida ishlayotganligi masalasi ham o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 113-moddasiga muvofiq, 2023/2024-o'quv yili uchun ta'lim muassasalarida tuzilgan muddatli mehnat shartnomalari muddati 2024-yil 1-iyulda tugaganligi munosabati bilan, o'rindoshlik asosida

ishlayotgan xodimlar bilan shartnomalar bekor qilingan. Shuningdek, vazirlik markaziy apparatida o'rindoshlik asosida faoliyat yuritayotgan xodimlar mavjud emasligi aniqlangan.

Tadbirkorlik faoliyati

Vazirlik markaziy apparatida faoliyat yuritayotgan xodimlarning tadbirkorlik faoliyati, ya'ni davlat organi yoki boshqa tashkilot nazoratidagi tadbirkorlik subyektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi ulushlarga egalik qilishi ham o'rganilgan. Tahlil natijasida, vazirlik hamda tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan 22 ta tadbirkorlik subyektida ta'sischiilik asosida faoliyat yuritayotgani aniqlangan. Hozirgi kunda esa, 8 nafar xodim o'z tadbirkorlik subyektini boshqa shaxslarga rasmiylashtirgan, 1 ta subyekt faoliyati tugatilgan, 6 ta subyekt faoliyat ko'rsatmaydi, 2 ta xodim bilan mehnat shartnomalari bekor qilingan va qolgan 5 nafar xodim tomonidan tadbirkorlik subyektidagi ta'sischiilik faoliyatini tugatish yuzasidan qonunchilikda belgilangan hujjatlar rasmiylashtirilmoqda.

Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalari

2023–2024 yillarda davlat organlari va tashkilotlari xodimlari tomonidan to'ldirilgan yillik manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalari tahlil qilindi. Vazirlik markaziy apparati bo'yicha jami 169 nafar xodim deklaratsiyalari o'rganilib, manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

2024-yil mobaynida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan jami 13 284 ta murojaat mazmuni tahlil qilinib, ulardan 94 tasida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq masalalar keltirilgani inobatga olindi. Tahlil natijalariga ko'ra, kelib tushgan 99 ta murojaatning 91 tasidagi vaziyatlar bevosita manfaatlar to'qnashuviga bog'liq emasligi, qolgan murojaatlarda esa manfaatlar to'qnashuvi bilan birga boshqa masalalar ham qayd etilgani aniqlangan. Shuningdek, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi" qonun talablari asosida murojaatlardagi mavzuga oid masalalar tasdiqlanmagan.

Kontragentlar bilan shartnomalar

2024-yil davomida 129 ta shartnoma doirasida kontragentlar o'rganilib, tegishli xulosalar chiqarilib, shartnomalar imzolangan.

Ishga qabul qilinayotgan nomzodlar

Hisobot davrida 1636 nafar nomzodga nisbatan tekshiruv o'tkazilgan. Tekshiruv natijalariga ko'ra, 39 nafar nomzodning ishga olinishiga to'sqinlik qiluvchi ma'lumotlar aniqlanmagan va ular ishga qabul qilingan.

Ta'lim va kommunikatsiya

2024-yilning iyul oyida oliy ta'lim muassasalarining birinchi prorektorlari, bo'lim boshliqlari, xodimlari, dekan o'rinbosarlari va tyutorlar ishtirokida "Korrupsiyaga qarshi kurash" mavzusida respublika seminar o'tkazildi. Seminar doirasida qatnashchilar tomonidan tajriba almashinuvi va korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalari muhokama qilindi.

Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va aloqa kanallari

Vazirlikning 1006 qisqa raqamli "call center" va (71) 230-64-64 raqamli "ishonch telefoni" tashkil etilgan. Ushbu aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar belgilangan tartibda ko'rib chiqilmoqda va doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilmoqda. Hisobot davrida, aloqa kanallari orqali xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa korrupsiyaviy qonunbuzarliklarga oid murojaatlar kelib tushmagan. Rasmiy murojaatlar tahlil qilinganda, ularning mazmuni o'z tasdig'ini topmagan.

Monitoring va nazorat

Tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash hamda qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish maqsadida mas'ul shaxslar belgilangan. Ushbu choralar yordamida korrupsiyaga nisbatan qat'iy va murosasiz munosabat shakllantirilmoqda.

9. Ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar, sohada samaradorlik va natijadorlikni oshirish hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijro holati.

1. Ochiq ma'lumotlarni taqdim etish

Vazirlik faoliyatiga oid ma'lumotlarni keng jamoatchilikka ochiq va qulay tarzda yetkazish maqsadida **veb-saytda "Ochiq ma'lumotlar" sahifasi tashkil etildi**. Ushbu sahifada quyidagi alohida bo'limlarda 2024-yil davomida **50 dan ortiq ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlar** o'z vaqtida sifatli joylab borilmoqda:

- **Moliyaviy hisobotlar** – 3299;
- **Ochiq ma'lumotlar** – 6 247;
- **Ochiqlik indeksi** – 2024.

Shuningdek, **Ochiq ma'lumotlar portalida 35 turdagi ma'lumotlar to'plami** belgilangan muddatlarda muntazam joylashtirilib kelinmoqda.

2. Ijtimoiy tarmoqlardagi faollik

2024-yil davomida vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi quyidagi rasmiy sahifalarida axborot materiallari e'lon qilindi:

- **Telegram va Facebook** – 10 300 ta post;
- **Instagram** – 3 600 ta post;
- **YouTube** – 140 ta videorolik.

Bundan tashqari, quyidagi turdagi materiallar tayyorlanib, ommaga taqdim etildi:

- **81 ta** infografika;
- **8 103 ta** foto;
- **1 617 ta** video;
- **1 900 ta** matn shaklidagi ma'lumotlar.

3. OAVda yoritilish ko'rsatkichlari

Vazirlik tomonidan ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etilib, quyidagi chiqishlar amalga oshirildi:

- **Televideniye** – 732 ta chiqish;
- **Radio** – 75 ta chiqish;
- **Elektron nashrlar** – 217 ta maqola;
- **Markaziy bosma nashrlar** – 40 ta maqola.



10. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat loyihalarini amalga oshirish samaradorligi, shu jumladan sohada raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron xizmatlarni joriy etish va rivojlantirish holati

Oliy ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha yangi bosqich.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oliy ta'lim tizimini zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida **oliy ta'lim jarayonlarini to'liq raqamlashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.**

2025-yilga mo'ljallangan reja

Oliy ta'limdagi barcha ma'muriy, o'quv, ilmiy va moliyaviy jarayonlar raqamlashtiriladi.

Ilmiy faoliyat samaradorligi monitoringi to'liq raqamlashtiriladi.

Kontrakt, stipendiya to'lovlari va yotoqxona joylashuvi bo'yicha barcha jarayonlar onlayn tizimga o'tkaziladi, bu orqali naqd pul aylanishiga chek qo'yiladi.

Talim ishtirokchilarining yagona elektron bazasi yaratiladi.

Talabalar akademik harakati va bitiruvchilar monitoringi avtomatlashtiriladi.

EduBilling – yagona axborot tizimi joriy etiladi

Barcha davlat oliy ta'lim muassasalari uchun majburiy bo'lgan yagona billing tizimi shakllantirilmoqda.

Moliya mablag'larining shaffof sarflanishini ta'minlash uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi barcha davlat oliygohlarining 1-darajali mablag' taqsimlovchisi sifatida belgilanadi.

Raqamlashtirish natijasida ta'lim jarayonida byurokratik to'siqlar kamaytirilib, boshqaruv jarayonlari tezlashadi.

Eriishilgan natijalar

Oliy ta'lim muassasalarida **1 012 ta** shtat qisqartirilib, natijada yiliga **25,4 mlrd so'm** mablag' tejaldi.

Tizimga jalb qilingan ta'lim ishtirokchilari:

1,4 mln nafar talaba

208 ta oliy ta'lim muassasasi

41 ming nafar professor-o'qituvchi

23 ta davlat organi bilan tizim integratsiya qilindi

30 ta elektron xizmat joriy qilindi

Raqamlashtirish qamrab olgan yo'nalishlar

Ma'muriy boshqaruv: Talabalar ma'lumotlari, pedagoglar va xodimlar ma'lumotlari, oliy ta'lim muassasalari bo'yicha yagona axborot bazasi.

O'quv jarayoni: Akademik ma'lumotlar, bitiruvchilar monitoringi, elektron reyestr va registrator ofis joriy etildi.

Moliyaviy boshqaruv:

Talabalar kontrakt to'lovlari nazorati

Stipendiya hisoblanishi va to'lovi

Yotoqxonaga joylashish va ijara to'lovlari boshqaruvi

Ilmiy faoliyat:

Pedagoglar ilmiy faoliyati monitoringi


Ilmiy loyihalar va maqolalar hisobi

Doktorantlar va tadqiqotchilar faoliyati

HEMIS – oliy ta'lim tizimining raqamlashtirilgan boshqaruv platformasi

HEMIS tizimi orqali oliy ta'lim muassasalari faoliyati kompleks raqamlashtirilmoqda.

HEMIS barcha oliygohlarning akademik va boshqaruv jarayonlarini yagona axborot tizimida jamlaydi.



11. Xodimlarni tanlash, joy joyiga qo'yish, bilim va malakasi shu jumladan, professional ko'nikmalarini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar.

2024-yil davomida oliy ta'lim muassasalarining **jami 9937 nafar** rahbar va pedagog kadrlari malaka oshirish kurslarida o'qitildi. Shundan, **3477 nafari** muqobil shaklda, **2342 nafari** masofaviy shaklda, **4118 nafari** esa an'anaviy usulda malaka oshirdi.

2024-yil davomida akademik litseylarning **jami 2867 nafar** rahbar va pedagog kadrlari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Ularning **21 nafari** muqobil shaklda, **49 nafari** masofadan hamda **2797 nafari** an'anaviy usulda malaka oshirdi.

Malaka oshirish kurslariga dars berish uchun jami **581 nafar** professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislari jalb etilgan bo'lib, ularning **346 nafari (59,6%)ni** xorijiy mamlakatlarda malaka oshirgan va stajirovka o'taganlar hisoblanadi. **Ilmiy salohiyati 91%.**

2024-yil mobaynida oliy ta'lim muassasalari hamda akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish kurslariga dars berish uchun jami **224 nafar** xorijiy mutaxassislar jalb etildi. Ularning **16 nafari** Amerika, **35 nafari** Yevropa, **94 nafari** MDH hamda **79 nafari** Osiyo mamlakatlari vakillari.

Rahbar va pedagog kadrlar uchun maxsus ochiq masofaviy kurslar platformasi joriy etildi. Bugungi kunda ushbu platformada **22 ta** kurslar tashkil etilgan bo'lib, ularda jami **40 ming nafardan ortiq** professor-o'qituvchilar o'z kasbiy bilim va malakalarini oshirib, tegishli elektron sertifikatga ega bo'ldilar.

Mazkur platforma orqali **gibrid shaklda** tashkil etilgan "Oliy ta'limda inklyuziv ta'limni tashkil etish asoslari" nomli kursda **11 ming nafardan ortiq** pedagoglar malaka oshirdi.

So'nggi yillarda hamkor xorijiy ilmiy va ta'lim tashkilotlari bilan birgalikda qo'shma malaka oshirish kurslarini tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Birgina 2024-yilning o'zida Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Maorif universiteti (Rossiya), Yuvyaskyulya universiteti (Finlandiya) hamda Respublika Oliy maktab instituti (Belarus) bilan hamkorlikda **jami 6 ta qo'shma malaka oshirish kurslari** tashkil etilib, kurs tinglovchilariga **ikki tomonlama "Double Certificate"**lar berildi.

2024-yilda Kasbiy ta'lim muassasalaridan jami **5808 nafar** rahbar va pedagog xodimlarning **59 yo'nalishda** malakasi oshirildi.

Bunda, **6 ta yo'nalishda** xususan, ARM xodimlari, Tadbirkorlik va biznes asoslari fani o'qituvchisi, Yoshlar yetakchisi, Uslubchilar, Zaxira kadrlar, Boshqarma xodimlari uchun malaka oshirish kurslari masofaviy va aralash (**14 ta guruh masofaviy 599 nafar** tinglovchi, **15 ta guruh aralash, 427 nafar** tinglovchi) shakllarda tashkil etildi.

Xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilar **4970 nafar**, o'quv jarayonlariga xorijdan jalb etilgan professor-o'qituvchilar soni **2510 nafarni** tashkil etadi.

2024-yilda buyurtmalar asosida bir qancha malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Jumladan:

Oliy ta'lim muassasalarining kadrlar bo'limi boshliqlari uchun "Mehnat shartnomalarini tuzish va xodimlar bilan ishlarni tashkil etish" mavzusida **24 soatga** mo'ljallangan qisqa muddatli maxsus malaka oshirish kursi tashkil etilib, ushbu kursda oliy ta'lim muassasalarining **111 nafar** kadrlar bo'limi boshliqlari o'z malakalarini oshirishdi.

"Axborot-kutubxona faoliyati" yo'nalishi bo'yicha **72 soatlik** qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilib, unda oliy ta'lim muassasalari Axborot-resurs markazlarining **160 nafar** rahbar va pedagog xodimlari malakasi oshirishdi.

"O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Falsafa" va "Dinshunoslik" fanlarining yangilangan dasturlari asosida 24 soatlik qisqa muddatli trenerlar tayyorlash kurslari tashkil etilib, **42 nafar** trener tayyorlandi. Ushbu kurslarda tayyorlangan trenerlar orqali **81 ta** oliy ta'lim muassasalarining **807 nafar** professor-o'qituvchilari fanlarning yangi dastur asosida o'qitildi.

2024-yilda shartnoma asosida nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari Qo'qon universiteti, Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti, Urganch innovatsion universiteti, Oriyental universiteti, Fan va texnologiyalar universitetlarining **276 nafar** rahbar va pedagog kadrlari uchun "Ta'lim tizimi menejmenti" va "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" yo'nalishlari bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

12. Davlat organi va tashkiloti huzuridagi jamoatchilik, maslahat va kollegial organlar faoliyati yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirning 2024-yil 12-iyuldagi 245-son buyrug'i bilan vazirlik huzuridagi **Jamoatchilik kengashi tarkibi qayta shakllantirilib**, tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son farmoni 8-band ikkinchi xatboshisiga muvofiq "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2024-yil 25-martdagi 86-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "**Jamoatchilik kengashi to'g'risida**" nizomga o'zgarish kiritildi. Unga ko'ra **jamoatchilik kengashining raisi vazir tavsiyasiga asosan, jamoatchilik kengashining a'zolari orasidan saylanishi, bunda Jamoatchilik kengashi raisi fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tanlanishi lozimligi belgilandi.**

Shundan kelib chiqib, joriy yil 15-noyabr kuni Jamoatchilik kengashining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi. Unda Jamoatchilik kengashi raisi va uning o'rinbosarini saylash masalasi qayta ko'rilib, vazir tavsiyasiga asosan kengash raisligiga "Mahorat&Menejment" NTM ijrochi direktori Rashidova Feruza Musayevna va rais o'rinbosarligiga Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori Saifnazarov Ismoil ma'qullanib, tasdiqlandi.

2024-yil davomida kengash tomonidan 3 ta oliygohda o'rganish olib borilib, abituriyentlar va talabalar o'rtasida so'rovnoma tashkil etildi. Shuningdek, vazirlik tomonidan Jamoatchilik kengashi a'zolari va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi oliy ta'lim muassasalari bo'ylab yangi barpo etilgan hamda 2024-yilda foydalanishga topshirilishi reja qilingan va qurilayotgan talabalar turar joylari bilan tanishish maqsadida 3 ta press-tur tashkil qilindi.

Press-turlar davomida boshlanayotgan o'quv yili uchun yangi barpo etilgan va joriy yilda foydalanishga topshirilishi reja qilingan hamda qurilayotgan talabalar turar joylari bilan tanishildi. Shu bilan birga ularda talabalar uchun yaratilgan sharoitlar o'rganildi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha mas'ullarga taklif va tavsiyalar berildi.

Bundan tashqari, Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash metodikasi asosida kengashning 2024-yilning II yarim yilligi faoliyati 22 ta mezon asosida baholandi.

13. Xorijiy mamlakatlarning shu vazifa va funksiyalarni bajaruvchi organlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, tajriba almashish va ilg'or amaliyotni implementatsiya qilish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar.

2024-yil davomida jami **11 ta xalqaro darajadagi tadbir** (ta'lim forumlari, ko'rgazma va konferensiyalar) o'tkazildi. Ular qatorida oltita tadbir tegishliligi bo'yicha 6 ta xorijiy davlat (Belarus, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Polsha)da tashkil etildi.

Ma'lumot uchun:

1. *Birinchi Xitoy-O'zbekiston ta'lim forumi,*
2. *Birinchi Belarus-O'zbekiston professional ta'lim forumi,*
3. *Ikkinchi O'zbekiston-Tojikiston rektorlari forumi,*
4. *Ikkinchi O'zbekiston-Qirg'iziston rektorlari forumi,*
5. *O'zbekiston-Turkiya ta'lim forumi,*
6. *Ikkinchi O'zbekiston-Polsha rektorlari davra suhbat,*
7. *Ikkinchi O'zbekiston va Buyuk Britaniya oliy ta'lim muassasalari forumi,*
8. *To'rtinchi O'zbekiston-Rossiya ta'lim forumi,*
9. *Global ta'lim forumi (O'zbekistondagi Butunjahon xalqaro yoshlar festivali doirasida),*
10. *Birinchi O'zbekiston-Italiya ta'lim forumi,*
11. *Markaziy Osiyo rektorlari forumi.*

Ushbu xalqaro tadbirlar doirasida **U-2-U (Universitet-Universitet)** shaklida rektorlar uchrashuvlari o'tkazilib, jami **250 ga yaqin shartnoma, memorandum va bitimlar imzolandi**. Tadbirlarda jami **300** dan ziyod xorijiy oliy ta'lim muassasasidan rektor va prorektorlar darajasida delegatsiyalar ishtirok etdilar.

Vazirlik rahbariyati vakillarining **30 ga yaqin xorijiy xizmat safarlari** tashkil etildi. Xususan safarlar **Xitoy, Buyuk Britaniya, Rossiya, Belarus, Tojikiston, Germaniya, Italiya, Polsha, Fransiya, Koreya, Qozog'iston, O'mon, Yaponiya, Qirg'iziston, Turkmaniston** kabi davlatlarga bo'lib, ular doirasidagi bir qator biznes-forumlarda **10 ga yaqin loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hujjatlar imzolandi**, O'zbekistonning innovatsion ishlanmalar ko'rgazmalari o'tkazildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rahbariyati vakillarining xorijiy hamkorlar bilan Vazirlikda jami **150 dan ortiq rasmiy uchrashuvlari** tashkil qilindi. Xususan, uchrashuvlar **Amerika Qo'shma Shtatlari, Misr, BAA, O'mon, Xitoy, Germaniya, Italiya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Koreya, Turkiya, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Fransiya, Venesuelo, Qatar** kabi davlatlarning elchilari, **Saudiya Arabistoni, Qozog'iston, Rossiya, Tojikisto, Xitoy** kabi davlatlarning fan va oliy ta'lim vazirlari, **YUNESKOning O'zbekistondagi vakili, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy rivojlanish masalalari bo'yicha xalqaro maslahatchisi, Jahon banki vakolatxonasi rahbari, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining maxsus vakili, Turkiya Prezidenti Administratsiyasining Inson resurslari bo'yicha rahbari** kabi yuqori martabali mehmonlar bilan uchrashuv va muzokaralari tashkil etildi.

Hisobot davrida **9 ta xalqaro darajadagi hamkorlik hujjatlari** imzolandi. Oliy va yuqori darajalardagi tashriflar chog'ida erishilgan kelishuvlar natijasida **40** dan ziyod Yo'l xaritalari tasdiqlanishi, ulardagi **3000** dan ziyod amalga oshirish mexanizmlarining bajarilishi yo'lga qo'yildi.

14. O'z faoliyatidagi ijobiy va salbiy ahamiyatdagi eng muhim ko'rsatkichlarning oldingi yillardagi ko'rsatkichlarga nisbatan qiyosiy tahlili (o'sish va pasayish dinamikasida).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha belgilangan topshiriqlarini ijro etish doirasida oliy ta'lim tizimida bir qator muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Talim dasturlarini xalqaro akkreditatsiya qilish:

- 2024-yilda **39 ta** ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi.
- 2025-yilda bu ko'rsatkich **45 taga** yetkazilishi rejalashtirilgan.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish:

- **15 ta** yangi qo'shma ta'lim dasturi ishga tushirildi.
- 2025-yilda qo'shimcha **12 ta** qo'shma dastur yaratilishi rejalashtirilgan.
- Xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilar soni **4 970 nafarga**, ta'lim jarayoniga jalb etilgan xorijiy professorlar esa **2 510 nafarga** yetdi.

Oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tashabbuslar:

- Bakalvriat ta'lim yo'nalishlari 40 foizga maqbullashtirildi.
- 4 000 ta ta'lim dasturi xalqaro TOP-300 oliygohlar dasturlari asosida takomillashtirildi.
- Bitiruvchilarning diplom himoyalari korxonalarda o'tkazilishi yo'lga qo'yildi (35,6 ming nafar bitiruvchi).

Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash:

- Davlat grantlari endilikda bilim va iqtidor asosida taqsimlanmoqda.
- Kam ta'minlangan oilalardan chiqqan 3,5 ming nafar talabaga qo'shimcha grant kvotasi ajratildi.
- 4 000 nafar talaba mustaqil oliygohlar tomonidan 1 mlrd so'mgacha moliyaviy yordam olmoqda.



Yetakchi oliygohlarda davlat grantlarining oshishi:

- O'zbekiston Milliy universiteti: +11.4%
- Toshkent davlat transport universiteti: +69%
- Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti: +109%
- Samarqand davlat universiteti: +40.7%

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta'lim sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha islohotlarni davom ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida muhandislik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ilg'or muhandislik maktablari faoliyati

- 8 ta oliy ta'lim muassasasida "Ilg'or muhandislik maktabi" tashkil etildi.
- 2026-yildan boshlab har yili yangi muhandislik dasturlari joriy etiladi.
- Muhandislik maktablarini moliyalashtirish uchun har yili davlat budjetidan 20 mlrd so'm ajratiladi.

Muhandislik sohasidagi tanlovlar

- 1-o'rin sovrindoriga – elektomobil sovg'a qilinadi.
- 2-11-o'rin egalari – xorijda malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- Tanlov yo'nalishlari: G'oya, loyihalar va ixtirolar.
- Ishtirokchilar: Talabalar, o'qituvchilar va amaliyotchilar.

Muhandislik sohasida hamkorlik va investitsiyalar

- Hamkor mablag'lar:
- 5 mlrd so'm – davlat investitsiyalari.
- 2 mlrd so'm – xususiy hamkorlarning sarmoyalari.
- Ushbu mablag'lar korxonalarining foyda solig'i bazasidan chegirib tashlanishi belgilangan.

Ilg'or muhandislik maktablariga qabul

- Bakalavriat: 2-bosqich talabalaridan 400 nafar qabul qilinadi.
- Magistratura: Hamkor korxonalar buyurtmasi asosida 120 nafar talaba jalb qilinadi.
- Doktorantura: Davlat buyurtmasi va ilmiy-loyihalar doirasida 60 nafar tadqiqotchi o'qishga qabul qilinadi.

Oliy ta'lim muassasalarini yiriklashtirish


- 2024-yilda 8 ta oliygoh 3 taga birlashtirildi (Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon).
- 2025-yilda 15 ta oliygoh 7 taga birlashtiriladi (Buxoro, Nukus, Farg'ona, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyati).

Natija:

- 2024-yilda 860 ta shtat birligi maqbullashtirilib, 45,6 mlrd so'm iqtisod qilindi.
- 2025-yilda 1 110 ta shtat birligi maqbullashtirilib, 50 mlrd so'm iqtisod qilinishi rejalashtirilgan.

Muhandislik sohasida yangi yo'nalishlar va xalqaro hamkorlik

- 2025-yilda yangi muhandislik yo'nalishlari joriy etiladi:
- Sanoat ekologiya-si
- Arxitektura-qurilish
- Energetika muhandisligi va raqamli sanoat
- Avtomobilsozlik sanoati
- 14 ta yangi muhandislik maktabi tashkil etiladi.
- 3 ta Rossiya oliygohlari filiali ochiladi:
- D.I. Mendeleev universiteti – kimyo muhandisligi va mashinasozlik
- G.V. Plekhanov universiteti – sun'iy intellekt



Kasbiy ta'lim sohasida islohotlar va yangi tashabbuslar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kasbiy ta'limni rivojlantirish, ish beruvchilar ehtiyojlarini inobatga olgan holda malakali mutaxassislar tayyorlash va ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida **bir qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.**

Kasbiy ta'lim tizimidagi asosiy o'zgarishlar

60 nomdagi yangi o'quv adabiyotlari **75 ming** nusxada nashr etiladi.

Koreya Eksimbanki bilan **51,1 mln AQSh dollari** hajmidagi loyiha doirasida **330 ta** texnikumda raqamli texnologiyalar joriy etiladi.

208 ta tuman va shahar hokimliklari, texnikum direktor va ish beruvchilar uchun dual ta'lim bo'yicha maxsus o'quv kurslari tashkil etiladi.

83 ta texnikumda xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladi (Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Belarus, Saudiya Arabistoni).

Texnikumlarga **2 100 ta** sanoat korxona va tashkilotlar hamkor sifatida biriktiriladi.

2 000 nafar o'quvchilarni ingliz, koreys, nemis va yapon tillariga o'qitish bo'yicha qo'shimcha xorijiy til kurslari tashkil etiladi.

Kasbiy ta'lim bo'yicha 2024-2025 yil rejasi

Jami o'quvchilar soni:

2024-yilda: **353 047 nafar**

2025-yilda: **420 000 nafar**

O'qitiladigan kasblar soni: **301 ta**

Texnikumlar soni: **600 ta**

Kasbga o'qitiladigan ishsizlar soni: **23 000 nafar**

Kasbiy ta'lim tizimining rivojlanishi

750 nafar pedagog Germaniya metodikasi asosida o'qitildi.

200 nafar pedagog xorijda malaka oshirdi.

Ish beruvchilarning ehtiyojlari o'rganildi: **51 482 ta** ish beruvchi tahlil qilindi.

Duall ta'lim tizimi asosida kasbga o'qitish

Ko'rsatkich	2024	2025
O'quvchilar soni	30 843 nafar	50 000 nafar
Hamkor korxonalar soni	7 677 ta	12 500 nafar
Ustozlar soni	7 789 nafar	12 100 nafar

Xalqaro ta'lim dasturlari

17 ta xalqaro ta'lim dasturi yo'lga qo'yildi (Germaniya, Buyuk Britaniya, AcwaPower).

158 nomdagi yangi o'quv qo'llanmalari nashr etildi.

12 ta BTEC xalqaro kvalifikatsiya sertifikatini joriy etildi.

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish

2024-yilda:

Malaqa toifasiga ega pedagoglar: 8 658 nafar (31%)

Jami o'qituvchilar soni: 28 141 nafar

2025-yilda:

Malaqa toifasiga ega pedagoglar: 9 850 nafar (35%)

Jami o'qituvchilar soni: 28 900 nafar

Kasb va yo'nalishlar tahlili

Kasblar klassifikatori maqbullashtirildi:

450 tadan 671 taga oshirildi (+33%).



Ilm-fan va innovatsiya sohasida yangi yondashuvlar

Ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va tijoratlashtirish

2024-yil:

Tijoratlashtirish loyihalariga ajratilgan mablag': 11,6 mlrd so'm

Startup loyihalari uchun ajratilgan mablag': 31,1 mlrd so'm

Muhandislik yo'nalishidagi tadqiqotlar: 33,7 mlrd so'm

Atrof-muhit va yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi tadqiqotlar: 84,6 mlrd so'm

2025-yil rejalari:

Tijoratlashtirish loyihalari: 80 mlrd so'm

Startup loyihalari: 100 mlrd so'm

Muhandislik yo'nalishidagi tadqiqotlar: **56 mlrd so'm**

Atrof-muhit va yashil iqtisodiyot tadqiqotlari: **93 mlrd so'm**

Ilmiy faoliyat va innovatsion mahsulotlar natijalari

2024-yilda sotilgan innovatsion mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar: **82,9 mlrd so'm**

2025-yilda rejalashtirilgan ko'rsatkich: **100 mlrd so'm**

2024-yilda ilmiy tadqiqotlar natijasida yaratilgan ish o'rinlari: **340 ta**

2025-yilda yangi ish o'rinlari yaratish rejasi: **450 ta**

Yoshlar akademiyasi faoliyati

2024-yil:

Akademiya qamrovi: **60 ming yosh olim**

Innovatsion loyihalar soni: **1 294 ta**

O'tkazilgan tanlovlar soni: **12 ta**

Akademiya a'zolari: **1 100 nafar**

Akademiya yetakchilari: **66 nafar**

2025-yil rejalari:

Akademiya qamrovi: **100 ming yosh olim**

Innovatsion loyihalar soni: **1 500 ta**

O'tkaziladigan tanlovlar soni: **30 ta**

Akademiya a'zolari: **2 500 nafar**

Akademiya yetakchilari: **110 nafar**

Ilmiy salohiyat va oliy ta'limdan keyingi ta'lim kvotalari

2024-yilda ilmiy tadqiqot sohalari bo'yicha qamrov:

Muhandislik yo'nalishi: **27%**

Gumanitar fanlar yo'nalishi: **28%**

Boshqa yo'nalishlar: **45%**

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim kvotalari: **5 200 ta**

Ilmiy salohiyat darajasi: **45%**

2025-yilda rejalashtirilgan o'zgarishlar:

Muhandislik yo'nalishi: **32%**

Gumanitar fanlar yo'nalishi: **25%**

Boshqa yo'nalishlar: **43%**

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim kvotalari: **5 300 ta**

Ilmiy salohiyat darajasi oshiriladi: **55%**



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi		Yoshlar bilan ishlash yo'nalishida		6
2024		2025		
	"Ma'rifat ulashib", "Talabalar ligasi", "Besh tashabbus", "Talaba-yugur" tadbirlariga jami 637 ming nafar talabalar jalb etildi.		"Xavfsiz dargoh va xavfsiz talaba" platformasi ishlab chiqiladi.	
	Oliygozlarda 178 nafar profilaktika inspektorlari faoliyati yo'lga qo'yildi.		Kiyim boshga doir talablarni aniq belgilash bo'yicha Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish taklif etiladi	
	180 ta oliygozda 2456 nafar talabalar ishtirokida "Qalqon" jamoatchilik tuzilmalari tashkil etildi.		Qizlar o'rtasida – "To'maris izdoshlari", yigitlar o'rtasida – "Amir Temur vorislari" harbiy-sport musobaqalari o'tkaziladi.	
	"Adabiy-ma'rifiy haftaliklar" loyihasi doirasida 94 ta oliygozda 768 ta tadbirlar o'tkazilib, 465 ming nafar talaba jalb etildi.		Har bir hududda bittadan oliygozda musobaqalar uchun to'siqlar yo'lga, o'q o'tish TIRi va boshqa shu kabi "Harbiy sport maydonchalari" tashkil etiladi.	
	47 ta yirik ko'rik-tanlov va festivallarga 1 mln nafar talaba va o'quvchilar jalb etildi.		350 ming nafar talabaning teatr, muzey, tarixiy obidalarga tashriflari uyushtiriladi.	
	Natijada talabalar o'rtasida jinoyatchilik 28,1 foizga (298 taga) kamaydi. (2023-yilda 1059 ta, 2024-yilda 761 ta)		Talabalarning "Ijtimoiy faollik indeksi" joriy etiladi va ma'naviy xatti-harakatlari baholanadi.	